Mazkur tadqiqotda jadidchilik harakatining ijtimoiy hayotdagi oʻrnini chuqur va obyektiv tahlil qilish maqsadida umumilmiy hamda maxsus ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy metod yordamida jadidchilikning vujudga kelish shart-sharoitlari, rivojlanish bosqichlari va ijtimoiy muhit bilan aloqadorligi oʻrganildi. Taqqoshlama metod orqali anʼanaviy jamiyat modeli bilan jadidchilik gʻoyalari taʼsirida yuzaga kelgan ijtimoiy oʻzgarishlar solishtirildi. Mantiqiy-tizimli tahlil jadidchilik gʻoyalarining jamiyat hayotiga taʼsir mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Ijtimoiy-falsafiy yondashuv orqali esa jadidchilik ijtimoiy ong evolyutsiyasi va madaniy taraqqiyot jarayonlari bilan bogʻliq holda talqin qilindi. Shuningdek, manbashunoslik metodi asosida jadidlar asarlari, davriy matbuot materiallari, arxiv hujjatlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodlarning kompleksligi jadidchilik harakatining ijtimoiy hayotga koʻrsatgan taʼsirini koʻp qirrali va ilmiy asoslangan holda ochib berishga imkon yaratdi hamda mazkur mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada boyitdi.

Natijalar va muhokama. Oʻtkazilgan tarixiy-ijtimoiy tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, jadidchilik harakati Turkiston jamiyatining ijtimoiy hayotida tub burilish yasagan omillardan biri boʻlgan. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan maʼrifiy va islohotchi gʻoyalar jamiyatning anʼanaviy tuzilmasini saqlagan holda, uni zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashtirishga xizmat qilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, jadidchilikning ijtimoiy taʼsiri avvalo ijtimoiy ongning oʻzgarishi va jamiyat aʼzolarining tafakkurida yangicha dunyoqarashning shakllanishida namoyon boʻlgan.

Usul-i jadid maktablarining joriy etilishi savodxonlik darajasining oshishiga, ilm-fan va dunyoviy bilimlarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishiga olib keldi. Bu jarayon jamiyatda bilimli va ijtimoiy faol qatlamning shakllanishiga zamin yaratdi. Jadidlar faoliyati natijasida ta'lim faqat diniy bilimlar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan fanlar bilan boyitildi. Bu holat yosh avlodning ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga turtki bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik matbuot va adabiyot orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Gazeta va jurnallar orqali ijtimoiy tenglik, adolat, milliy birlik va taraqqiyot g'oyalari keng targ'ib qilindi. Bu esa jamiyatda tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat hissining kuchayishiga olib keldi. Jadid adabiyoti va teatr faoliyati esa madaniy hayotning jonlanishiga, milliy madaniyatning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi.

Muhokamalar shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o'rnini qayta ko'rib chiqishga ham turtki bo'lgan. Ayollar ta'limini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish haqidagi g'oyalar o'sha davr uchun progressiv hisoblangan va ijtimoiy munosabatlarda asta-sekin o'zgarishlarga olib kelgan. Shu bilan birga, jadidchilik ijtimoiy hayotda milliy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirib, jamiyatni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lgan.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jadidchilik harakati Turkiston jamiyatining ijtimoiy hayotida keng qamrovli va uzoq muddatli ta'sir ko'rsatgan tarixiy-ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Jadidlar faoliyati natijasida jamiyatda ma'rifatparvarlik g'oyalari mustahkamlanib, ijtimoiy ong va tafakkur yangilandi, ta'lim tizimi modernizatsiya qilindi hamda madaniy hayotda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik nafaqat tarixiy davr hodisasi, balki bugungi kunda ham ijtimoiy taraqqiyot, milliy ong va ma'naviy yangilanish jarayonlarini anglashda muhim nazariy

va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati (References):

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
2. Fitrat A. Milliy uyg'onish va jadidchilik. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
4. Munavvar qori Abdurashidxonov. Pedagogik va ma'rifiy qarashlar. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Karimov N. Jadidchilik harakati va ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
6. Alimuhamedov B. Turkistonda jadidchilik va milliy uyg'onish jarayoni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
7. Qosimov B. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
8. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
9. Adeeb K. Jadidism as a Social Reform Movement in Central Asia. // Central Asian Survey. – 2017. – Vol. 36, No. 2. – P. 145–160.
10. Djuraeva N.D. Issues of Women's Rights in the Jadid Movement. // Indonesian Journal of Cultural and Community Development. – 2024. – Vol. 15, No. 1. – P. 45–52.
11. Saidov S. Jadidchilik va ijtimoiy modernizatsiya masalalari. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 2021. – №3. – B. 56–62.
12. Abdukarimov A. Jadidchilik va milliy o'zlik muammosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
13. Western European Studies Journal. Jadidism and Social Transformation in Turkestan. – 2023. – Vol. 8, Issue 2.
14. Usmanov O. Jadidchilik harakati va ijtimoiy islohotlar. // Tarix va zamonaviylik. – 2020. – №4. – B. 33–40.
15. Rasulov J. Jadid ziyolilari va jamoatchilik fikrining shakllanishi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.

EKOLOGIK MADANIYATNI MUHIM TARKIBIY QISMLARI VA UNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

*Bayeshanov Abdulla Mustafayevich,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi*

KEY STRUCTURAL COMPONENTS OF ECOLOGICAL CULTURE AND THE IMPORTANCE OF ITS FORMATION

*Bayeshanov Abdulla Mustafayevich,
Lecturer at Gulistan State University*

ОСНОВНЫЕ СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЗНАЧЕНИЕ ЕЁ ФОРМИРОВАНИЯ

*Баешанов Абдулла Мустафаевич,
преподаватель Гулистанского государственного университета*

[a.bayeshanov@
mail.ru](mailto:a.bayeshanov@mail.ru)

[https://orcid.org/
0009-0001-6021-
0128](https://orcid.org/0009-0001-6021-0128)

Annotatsiya: Maqolada bugungi ekologik muammolar tobora kuchayib borayotgan sharoitda hayotiy ehtiyoj sifatida muhim ahamiyat kasb etib borayotgan ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi, uning tarkibiy qismlari tahlili yoritilgan bo'lib, ekologik bilim, ekologik ong, axloq, an'ana va qadriyatlarning mazmun-mohiyati va bu jarayondagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik bilim, tabiiy resurs, axloq.

Abstract: The article examines the issue of forming ecological culture, which is becoming increasingly important as a vital necessity in the context of growing contemporary environmental problems. The study analyzes the structural components of ecological culture and reveals the essence and significance of ecological knowledge, ecological awareness, morality, traditions, and values, as well as their role in this process.

Keywords: ecology, ecological awareness, ecological culture, ecological knowledge, natural resources, morality.

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования экологической культуры, которая приобретает всё большую значимость как жизненная необходимость в условиях усиления современных экологических проблем. Анализируются структурные компоненты экологической культуры, раскрывается сущность и содержание экологических знаний, экологического сознания, морали, традиций и ценностей, а также их роль и значение в данном процессе.

Ключевые слова: экология, экологическое сознание, экологическая культура, экологические знания, природные ресурсы, мораль.

Kirish (Introduction). Ekologik madaniyat va uni shakllantirish masalasi bugungi kunning eng muhim hayotiy ehtiyoji deyish mumkin. Chunki, asrlar davomida bizni bag'rida ulg'aytirib kelgan, insoniyat uchun makon va tabiiy resurslar manbayi bo'lgan ona tabiatning ahvoli tobora og'irlashib, xavotirli tus olmoqda. Globallashib borayotgan dunyoda ekologik muammolar borgan sari kuchayib, murakkablashib bormoqda. Iqlimning

keskin o'zgarishi, havoning ifloslanishi, tabiiy resurslarning tugab borishi, bio xilma-xillikning yo'qolishi kabi holatlar vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda. Tabiat muvozanatini buzulishi, nafaqat tabiatga balki insoniyatning o'ziga ko'proq zarar keltiradi.

“Jahon statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan o'lmoqda.

Shuningdek, bizning sog'lig'imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% esa o'zimizga va atrof muhit hodisalarga bog'liq"[1]. Mana shunday vaziyatda ekologik madaniyatni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Inson ekologiyasi, tabiatni asrash, xususan ekologik madaniyat masalasi ko'plab olimlar e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu borada mamlakatimiz olimlaridan Xamroyev A [2] ekologik barqarorlik va uning ahamiyati, Hakimov N [3] inson ekologiyasi va ekologik barqarorlik, ekologik madaniyat masalalarini tahlil etgan bo'lsa, xorijiy olim Attenboro D [4] izlanishlarida Yer sayyorasining hayoti, ekologik holatiga oid masalalarni o'rgangan.

Aslida tabiat tabiiy tiklanish xususiyatiga ega bo'lib, bunga vaqt kerak va hech qanday antropogen omillar xalaqit bermasligi lozim. Lekin, bir narsani unutmaslik lozimki, tabiat muvozanatini buzulishi insoniyat kelajagini xavf ostiga qo'yadi. Sayyoramiz qariyb 4,5 milliard yoshda. U odamzod paydo bo'lishidan oldin ham mavjud bo'lgan. Tabiatdagi barcha narsa bejiz yaratilmagan. Barchasi bir-birini taqozo etadi. Xuddi zanjir kabi. Mana shu zanjirning buzulishi o'nlab bo'lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tabiatga eng katta zarar insoniyat tomonidan keltiriladi. Buning asosiy sababi kishilarda ekologik ongning yetishmasligi va ekologik madaniyatning shakllanmaganligidir.

Ekologik madaniyat tushunchasiga hamma har xil yondashadi. Jumladan, professor N.H.Hakimov: "Ekologik madaniyat" inson ongi va tafakkurini, ma'naviyati, atrof-muhit, tabiiy resurslarga mansub bilimlar asosidagi ijobiy munosabati va ijtimoiy, iqtisodiy faoliyatidan iborat jarayondir" [5], - deb ta'kidlagan bo'lsa, S.Nuriddinova va O.Ashurovalar quyidagicha ta'riflashgan: "Ekologik madaniyat — bu insonning tabiatga bo'lgan munosabati, uni muhofaza qilishdagi ma'suliyati va ekologik ongini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichdir"[6].

Ekologik madaniyat – bu ko'p qirrali sotsial-madaniy fenomen bo'lib, inson va tabiatning o'zaro muloqoti va munosabatlarini belgilab beruvchi, jamiyat va tabiat uyg'un yashashini ta'minlashga qaratilgan bilim, qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari, malaka va amaliy harakatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni olib borishda mantiqiy, qiyosiy, ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ekologik madaniyatni shakllantirishda va tahlil etishda asosiy xususiyat uning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ekologik madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida bilim, axloq, an'ana va qadriyatlar, ekologik ong kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

Ahmad Yugnakiy "Bir bilimli bilimsizning mingiga teng, Ming bilimsiz bilimlarga bo'lolmas yeng. Endi o'zing sinab ko'rgil, ber e'tibor, Bilimdan foydaliroq qanday narsa bor?" [7]deganda barcha narsalarning asosida bilim yotishiga ishora qilgan edi. Dunyoni anglash uchun avvalo bilim darkor. O'zbek tilining izohli lug'atida: "bilim obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va b.) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar majmui"[8] – deb ifodalangan. Bilim bu jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuch bo'lib, avvalo insonning o'zini va borliqni anglash, o'zgartirish vositasi deyish mumkin. Har qanday islohot zamirida bilim yotadi. Bilimsiz insoniyat qorong'ulikda qolgan, imkoniyatlardan mahrum va kelajakni qurishga qodir bo'lmagan ongsiz, zaif mavjudotga aylanib qolar edi.

Ekologik bilim ekologik madaniyatning tarkibiy asosi hisoblanadi. U shunchaki ma'lumotlarni bilish emas, balki tabiat va inson o'rtasidagi uzviy munosabatlar, tabiat qonuniyatlari, ekologik muammolarning sabablari va uning oqibatlarini tushunish va bartaraf qilishga qaratilgan bilimlardan samarali foydalana olishdir. Atrof-muhitni muhofaza qilishda, ekologik muammolar natijasida insoniyatga jiddiy tahdid solishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarga qarshi kurash va oldini olish chuqur tahliliy bilimni talab qiladi.

Ekologik madaniyatning yana bir muhim tarkibi qismi bu ekologik ongdir. "Bilim ong tuzulishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini xarakterlaydigan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi".[9] Inson qancha ko'p bilsa, dunyoni shuncha ko'proq anglab boradi. Ekologik ong esa, odam yashash davomida tabiatning "xo'jayini" emas, ajralmas bir qismi ekanligini tushunib yetishi, antropogen omillarni ekologiya va

atrof-muhitga ta'sir doirasini chuqur his qilishi, global va lokal darajadagi ekologik muammolarning ne chog'lik dolzarbligini idrok etishi, shuningdek, tabiat va jamiyat oldidagi g'amxo'rlik, hurmat va mas'uliyatni anglab yetishi demakdir.

Buyuk faylasuf Arastu: "Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo'lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketibti", - deganida mutlaqo haq edi. Ekologik madaniyatni shakllanishida faqatgina bilim va ekologik ongning o'zi yetarli emas. Axloq deb atalmish "kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi" [9;40] ham juda zarur. Axloq ekologik madaniyatning barcha tarkibiy qismlarini birlashtirib, tabiatga nisbatan insoniy munosabatni belgilab beradi.

Masalan, odamzod atomning tuzilishi, yadro reaksiyalari va energiya moddaga aylanish qonuniyatlari haqida chuqur bilim ega bo'lishi fizika fanidagi eng katta yutuqlardan edi. Lekin, bu bilimdan egri yo'lda foydalanish, axloqsizlarcha harakatlanish kuchayib ketdi. Vayronkor qurollarni yaratishda foydalanilgani va uni qo'llangani (Xirosima va Nagasaki) nafaqat odamlarga, balki tabiatga ham jiddiy zarar yetkazdi. Millionlab odamlar qurbon bo'lishiyu, nogiron avlodlarni tug'ilishi, kasalliklarning ortishiga, radiaktiv ifloslanish, ekologiya buzulishiga, tuproq, suv va havoga juda jiddiy zarar yetkazdi.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va e'zozlanib kelingan an'ana va qadriyatlari bisyor. Bularning aksariyat qismi tabiat va uni asrash bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda ularga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Ota-bobolarimiz azaldan suvni qadrlashgan. Hattoki unga tuflash ham mumkin bo'lmagan. Yoshligimizda, suvga axlat tashlama, hattoki tuflama, yomon bo'ladi deyishardi. Aslida mana shu yomon bo'ladini zamirida juda katta ma'no bor edi. Ma'lumki, avvallari asosan ariqlardan suv ichilgan. Bitta ariq butun bir qishloqdan o'tib, yuzlab odamlarni bahramand qilgan. Aynan suvni ifloslantirmaslik, o'zidan keyin yashovchi aholiga toza holda yetizib berish mas'uliyati shunchalik kuchli bo'lganki, biror odam botinib chiqindi tashlamagan. Yoki yerni asrash masalasi. Yer unumdorligini saqlash, tuproqni

ifloslantirmaslik, hosilni yig'ib olgach qolgan xazonlarni yoqib yubormaslik, chiqindilarni chuqurga ko'mish bilan bog'liq an'ana va qadriyatlarimiz juda ko'p. Bundan tashqari, hayvonlar va qushlarga alohida mehr ko'rsatish(qaldirg'ochlarni haydamaslik, musichalarga ozor bermaslik) kabilar biologik xilma xillikni asrashga xizmat qilgan deyish mumkin. An'analar ona tabiat bilan bog'liq jarayonlar, ob-havo, o'simliklar va hayvonlar haqidagi amaliy ekologik bilimlar avloddan avlodga o'tishiga xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ekologik madaniyatni shakllantirishda avvalo uni tarkibiy qismlarini o'rganish va tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologiya oid bilimlar, ekologik ong, axloq, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tabiatni asrash bilan bog'liq an'ana va qadriyatlar va boshqalar ekologik madaniyatning tarkibiy qismi, asosiy komponenti sifatida tahlil etilganda ularning mazkur jarayondagi ahamiyati aniq va yorqinroq namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ra'no Parpiyevna Rustamova (2022). Ekologiya buzilishining inson salomatligiga ta'siri. Academic research in educational sciences, 3 (2), 809-814.
2. Xamroyev A. Ijtimoiy davlat va ekologik barqarorlik. - Toshkent: Iqtisod-siyosat, 2021.
3. Nazar Hakimov/ Human ekologi. Monography/ Lambert/ London. Unaited Kingdom. 2023.p.235.
4. Дэвид Аттенборо. Жизнь на нашей планете. Мое предупреждение миру на грани катастрофы. М.: Бомбора, 2022
5. Hakimov N.X. Inson ekologiyasi: Monografiya. T.: "IQTISODIYOT", 2021. – B.37.
6. Nuriddinova, S., & Ashurova, O. (2025). Ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati. *Молодые ученые*, 3(5), 119-121.
7. Ahmad Yugnakiy. Hibbat ul-haqoyiq. 6-bet. www.ziyouz.com
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 260-bet. www.ziyouz.com
9. Falsafa. Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". -Toshkent:2004.: - B. 315
10. Bayeshanov, A. (2025). Inson ekologiyasi: tabiat va inson uygunligi. *Академические исследования в современной науке*, 4(36), 35-38.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA INSON SALOMATLIGI TUSHUNCHASINING KO'RSATKICHLARI

Javliyev Feruz Kamilovich,

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti assistenti

INDICATORS OF THE CONCEPT OF HUMAN HEALTH IN THE RENEWING UZBEKISTAN

Javliyev Feruz Kamilovich,

Assistant at Kattakurgan State Pedagogical Institute

ПОКАЗАТЕЛИ ПОНЯТИЯ ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ УЗБЕКИСТАНЕ

Жавлиев Феруз Камилевич,

*ассистент Каттакурганского государственного
педагогического института*

f.javliyev@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0000-4492-4652>

Annotatsiya: Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag' evaziga sotib olib bo'lmaydi. Har bir shaxs o'zining yurish-turishi uchun mas'ul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda, inson salomatligi muhim ahamiyatga ega bo'lgan oliy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Aytishimiz mumkinki, so'z, fikr, niyat, amal insonning axloqiy-estetik faoliyatida hamda xulqiy go'zallikka erishish yo'lidagi maqsad va intilishlariga asos bo'ladigan, insonni to'g'ri faoliyati.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, me'yor, tushuncha, jamiyat, transformatsiya, salomatlik, inson, estetik munosabat, zotan, so'z, fikr, niyat, turmush estetikasi.

Abstract: Human health cannot be bought with any amount of wealth and money. In a democratic society, where each person is considered responsible for his or her own behavior, human health is elevated to the level of a supreme value of paramount importance. We can say that words, thoughts, intentions, and actions are the basis for a person's moral and aesthetic activities and goals and aspirations towards achieving moral beauty, which are the basis for the correct functioning of a person.

Key words: Uzbekistan, norm, concept, Society, transformation, Health, Human, aesthetic attitude, already, word, thought, intention, aesthetics of life

Аннотация: Здоровье человека нельзя купить никакие материальные блага и деньги. В демократическом обществе, где каждый человек несет ответственность за свое поведение, здоровье человека возведено на высший уровень важности. Можно сказать, что слова, мысли, намерения, дела являются основой нравственно-эстетической деятельности человека, а также целей и стремлений к достижению нравственной красоты, правильной деятельности человека.

Ключевые слова: Узбекистан, норма, понятие, общество, трансформация, здоровье, человек, эстетическое отношение, уже, слово, мысль, намерение, эстетика жизни

Kirish (Introduction). O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqorolik jamiyatini shakllantirishda, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi esa jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga bevosita bog'liqdir. Falsafiy ma'noda inson biopsixosotsial tizim bulib hisoblansa, insoning biologik, psixologik va ijtimoiy salomatlikni tamnlash

jamiyatda sogʻlom turmush tarzini qaror toptirish asosida amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sogʻlom turmush tarzi – axloqiy, faol, mehnat, sabr-toqat tamoyillariga asoslangan va shu bilan birga, atrof-muhitning salbiy taʼsiridan himoya qiluvchi, keksalikka qadar axloqiy, aqliy va jismoniy salomatlikni saqlashga imkon beradigan hayot. Sogʻlom turmush tarziga quyidagilar kiradi: samarali mehnat, ratsional ovqatlanish, biologik ritmga rioya qilish, optimal harakat rejimi, shaxsiy gigiyena, kundalik rejimga rioya qilish. Sogʻlom turmush tarzi haqida turlicha qarashlar ilgari surilgan boʻlib, falsafiy va sotsiologik yoʻnalish vakillaridan P.A.Vinogradov, B.S.Erasov, O.A.Milshteyn, V.A.Ponomarchuk, V.I.Stolyarov va boshqalar sogʻlom turmush tarzini global ijtimoiy muammo, butun jamiyat hayotining ajralmas qismi deb hisoblaydilar.[1] Salomatlikning uch turi mavjud boʻlib, bular jismoniy, aqliy va axloqiy (ijtimoiy) salomatlikdir. Jismoniy salomatlikning mohiyati shundan iboratki, agar barcha organlar va tizimlar yaxshi ishlasa, unda butun inson tanasi (oʻzini-oʻzini boshqarish tizimi) toʻgʻri ishlaydi va rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Axloqiy salomatlik insonning ijtimoiy hayotining asosi boʻlgan axloqiy tamoyillar bilan belgilanadi. Shaxsning axloqiy salomatlik belgilari, eng avvalo, mehnatga ongli munosabatda boʻlish, madaniyat xazinalarini oʻzlashtirish, oddiy turmush tarziga zid boʻlgan odat va odatlardan faol ravishda voz kechishdir.

Tahlil va Natijalar (Analysis and results). Jamiyat hayotida salomatlik insonning birinchi va eng muhim ehtiyoji boʻlib, uning mehnat qobiliyatini belgilaydi va shaxsning barkamol rivojlanishini taʼminlaydi. Bu atrofda dunyoni bilish, oʻzini-oʻzi tasdiqlash va inson baxtining eng muhim shartidir.[2]

Sogʻlom turmush tarzi – axloqiy, faol, mehnat, sabr-toqat tamoyillariga asoslangan va shu bilan birga, atrof-muhitning salbiy taʼsiridan himoya qiluvchi, keksalikka qadar axloqiy, aqliy va jismoniy salomatlikni saqlashga imkon beradigan hayot. Sogʻlom turmush tarziga quyidagilar kiradi:

samarali mehnat, ratsional ovqatlanish, biologik ritmga rioya qilish, optimal harakat rejimi, shaxsiy gigiyena, kundalik rejimga rioya qilish. Sogʻlom turmush tarzi haqida turlicha qarashlar ilgari surilgan boʻlib, falsafiy va sotsiologik yoʻnalish vakillaridan P.A.Vinogradov, B.S.Erasov, O.A.Milshteyn, V.A.Ponomarchuk, V.I.Stolyarov va boshqalar sogʻlom turmush tarzini global ijtimoiy muammo, butun jamiyat hayotining ajralmas qismi deb hisoblaydilar. Salomatlikning uch turi mavjud boʻlib, bular jismoniy, aqliy va axloqiy (ijtimoiy) salomatlikdir. Jismoniy salomatlikning mohiyati shundan iboratki, agar barcha organlar va tizimlar yaxshi ishlasa, unda butun inson tanasi (oʻzini-oʻzini boshqarish tizimi) toʻgʻri ishlaydi va rivojlanadi. Ruhiy salomatlik miyaning holatiga bogʻliq boʻlib, u fikrlash darajasi va sifati, diqqat va xotiraning rivojlanishi, hissiy barqarorlik darajasi, irodaviy fazilatlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Axloqiy salomatlik insonning ijtimoiy hayotining asosi boʻlgan axloqiy tamoyillar bilan belgilanadi. Shaxsning axloqiy salomatlik belgilari, eng avvalo, mehnatga ongli munosabatda boʻlish, madaniyat xazinalarini oʻzlashtirish, oddiy turmush tarziga zid boʻlgan odat va odatlardan faol ravishda voz kechishdir. Sogʻlom turmush tarzi inson hayotining turli jabhalarini rivojlantirish, faol uzoq umr koʻrish va ijtimoiy funksiyalarni toʻliq bajarish uchun zarur shartdir. Sogʻlom turmush tarzining dolzarbligi ijtimoiy hayotning murakkablashishi, salbiy oʻzgarishlarni keltirib chiqaradigan texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xavfning kuchayishi natijasida inson tanasiga stresslarning koʻpayishi va oʻzgarishi bilan bogʻliq. Sogʻlom turmush tarzi inson hayotining turli jabhalarini rivojlantirish, faol uzoq umr koʻrish va ijtimoiy funksiyalarni toʻliq bajarish uchun zarur shartdir[3].

Sogʻlom turmush tarzining dolzarbligi ijtimoiy hayotning murakkablashishi, salbiy oʻzgarishlarni keltirib chiqaradigan texnogen, ekologik, psixologik, siyosiy va harbiy xavflarning kuchayishi natijasida inson tanasiga stresslarning koʻpayishi va oʻzgarishi bilan bogʻliq. Sogʻlom turmush tarzi quyidagi asosiy elementlarni oʻz ichiga oladi: “samarali mehnat, oqilona mehnat va dam olish

rejimi, yomon odatlarni yo'q qilish, optimal harakat rejimi, shaxsiy gigiyena, chiniqish, ratsional ovqatlanish va boshqalar". Samarali mehnat sog'lom turmush tarzining muhim elementidir. Inson salomatligiga biologik va ijtimoiy omillar ta'sir qilib, ularning asosiysi mehnatdir. Mehnat va dam olishning oqilona rejimi sog'lom turmush tarzining zarur elementidir. To'g'ri va qat'iy rioya qilingan rejim bilan tananing aniq va zaruriy ish ritmi ishlab chiqiladi, bu ish va dam olish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi va shu bilan salomatlikni mustahkamlash, mehnat qobiliyatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirishga yordam beradi.

Sog'lom turmush tarzi murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'zida ifodalaydi va sog'lom turmush tarzining mezonlariga shaxsning jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko'rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi, oilada va kundalik turmushda namunali yashashi, o'zidagi jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga intilishi, tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi, sog'lom va barkamol inson bo'lib shakllanish uchun o'z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi, nosog'lom turmush tarziga xos zararli odatlarning ta'siriga tushib qolishdan o'zini asrashga intilib yashashi, hayotda to'g'ri yashayotganidan qoniqish hosil qilib, zavqlanib yashashga intilishi, sog'lom turmush tarzini o'zi uchun bir umrga maqsad qilib tanlashi va shu yo'lda faoliyat olib borishi kabi qimmatli insoniy sifat va xususiyatlarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatidagi eng muhim masalalardan biridir. O'zbekistonning tashqi siyosatida o'zaro tenglik va manfaatli hamkorlik masalasiga asosiy e'tibor qaratilayotgan bo'lsa, ichki siyosatda fuqarolarning baxtli va farovon hayot kechirishi, ularning sog'lom turmush tarzini ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sog'lom turmush tarzining rivojlanishida diniy va dunyoviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish O'zbekistonning kelgusi taraqqiyot yo'lini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida belgilab beradi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yangilanayotgan O'zbekistonda inson salomatligi tushunchasi tobora keng qamrovli va kompleks mazmun kasb etib bormoqda. Inson salomatligi endilikda faqat jismoniy holat bilan cheklanmay,

balki ruhiy, ijtimoiy va ma'naviy farovonlikni ham o'z ichiga oluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy va tibbiy-pedagogik kategoriya sifatida talqin qilinmoqda. Bu yondashuv davlat siyosati, sog'liqni saqlash tizimi va ijtimoiy rivojlanish strategiyalarida inson omilining ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Inson salomatligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida hayot davomiyligi, kasallanish darajasi, jismoniy faollik, ruhiy barqarorlik, sog'lom turmush tarziga rioya etish, ekologik muhit sifati va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko'rsatkichlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ta'lim va madaniyat saviyasi hamda aholining sog'liq haqidagi ongli munosabati bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik tibbiyot va jismoniy tarbiyani rivojlantirish inson salomatligini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, oilaviy muhit va ijtimoiy institutlarning hamkorligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, inson salomatligi ko'rsatkichlarini yaxshilash yangilanayotgan O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, mehnat salohiyatini oshirish va kelajak avlodning sog'lom kamol topishini ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega. Shu bois inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida e'tirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamanovich, R. H. (2021). Civil Society: Prosperities of Decentralization in Management. Middle European Scientific Bulletin, 18, 359-362.
2. Hakim, R. (2021). Political and Legal Culture-the Factors of Stability of the Political and Legal System. Бюллетень науки и практики, 7(3), 281-286.
3. Расулов, X. M. (2022). МАЪНАВИЙ ТАРҒИБОТДА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 818-826.

ALISHER NAVOIYNING AHLOQIY FALSAFIY
QARASHLARI

Jo'rabekov Abduhalil Jo'rabekovich,

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

MORAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS OF ALISHER
NAVOI

Jurabekov Abduhalil Jurabekovich,

Independent Researcher at Samarkand State Institute of Foreign
LanguagesНРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ
АЛИШЕРА НАВОИ

Журабеков Абдухалил Журабекович,

независимый исследователь Самаркандского государственного
института иностранных языковa.jurabekov@gmail.com<https://orcid.org/0009-0001-8359-8150>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiyning insonparvarlik, adolat, ma'rifat va fazilat g'oyalari o'zining tarixiy konteksti, falsafiy ildizlari va zamonaviylikdagi ahamiyati nuqtai nazaridan o'rganilib, Navoiyning asarlaridan axloqiy idealarining bugungi kundagi dolzarbligi va ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, axloq falsafasi, insoniyat, adolat, ma'rifat, turkiy-islom falsafasi, tasavvuf axloqi, ijtimoiy adolat, ma'naviy kamolot.

Abstract: This article examines Navoi's ideas of humanism, justice, enlightenment, and moral virtue from the perspectives of their historical context, philosophical foundations, and contemporary relevance. Drawing on an analysis of Navoi's works, the study reveals the continuing significance of his ethical ideals in the modern world and highlights their social and spiritual importance.

Key words: Alisher Navoi, moral philosophy, humanism, justice, enlightenment, Turkic-Islamic philosophy, Sufi ethics, social justice, spiritual perfection.

Аннотация: В данной статье гуманистические идеи Навои, такие как справедливость, просвещение и нравственные добродетели, рассматриваются в контексте их исторических условий, философских истоков и современной значимости. На основе анализа произведений Навои раскрывается актуальность его нравственных идеалов в современном обществе, а также их социально-духовное значение.

Ключевые слова: Алишер Навои, нравственная философия, гуманизм, справедливость, просвещение, тюрко-исламская философия, суфийская этика, социальная справедливость, духовное совершенство.

Kirish (Introduction). Alisher Navoiy (844-906/1441-1501)-yillarda yashab ijod qilgan. XV asrda buyuk turkiy shoiri, Markaziy Osiyoning temuriylar davri hukmdori Sulton Husayn Boyqaro (873-911/1469-1506) saltanatining madaniy va siyosiy hayotida o'chmas iz qoldirgan shaxsdir. Alisher Navoiy temuriylar davlati gullagan davrda, G'iyosiddin Jamshid Koshifiy, Qozizoda Rumi, Ulug'bek kabi buyuk olim va mutafakkirlar yetishib chiqqan muhitda faoliyat yuritdi. U nafaqat davlat arbobi va bosh vazir, balki "ikki tilning sultoni"

sifatida fors va turkiy tillarda abadiy asarlar yaratgan buyuk mutafakkir edi. Navoiyning axloqiy qarashlari uning hayotiy tajribasi, keng dunyoqarashi va chuqur diniy-ma'naviy e'tiqodlarining asosida shakllangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Hazrat Navoiyini shunday ta'riflaydi: "Ulug' ajdodimiz o'zining o'lmas asarlarida ona tilimizning so'z boyligi va ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyotining shakllanishi

va takomilida hech kim Navoiydek beqiyos xizmat qilgan emas, desak, ayni haqiqatdir”.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Navoiyning din va ma’naviyatga qarashlari e’tiborga molik. Uning axloqiy tizimi qat’iy islomiy asosga ega, u Qur’on va hadislarni aqidaparastlik bilan emas, balki insoniy tushuncha darajasida talqin etdi: “Din yo’li – inson yo’li, Inson yo’li – mehribonlik yo’li”(Mahbub ul-Qulub)da shunday degan. “Navoiy o’z ijodidda... “Qur’on” va “Hadis”larga yaqin turib, unga suyanish orqali ijodida eng yuksak cho’qqilarga ko’tarila oladi va uning bitgan she’riy satrlari chuqur hayotiy mazmun va go’zallik kasb etadi” [1.66], – deb ta’kidlaydi. A.Hayitmetov “Hayrat ul-abror” dostonida muallif qarashlari bilan “Qur’on” bilan juda yaqinlik borligi va buning badiiy dostonidagi tasvirlar bilan uning sura va oyatlaridan misollar keltirish orqali asoslaydi[2]. Alisher Navoiy odamning odamiyligini uning ma’naviy fazilatlarini ta’minlashini hayotiy misollar asosida ochib bergani, dostonidagi pand-u nasihatlar komil shaxs shakllanishiga xizmat qilishi mumkinligini aytib o’tgan.

Alisher Navoiy asarida uchraydigan naqshbandiyaga doir mulohaza, sharhlar va qaydlarning ko’p qismi bevosita tariqat qoida va talablariga daxldor.

Umuman olganda Hazrat Navoiy asarlarida tasavvuf falsafasidagi axloq, xulq-odob qoidalari, insonparvarlik va odamiylik, nafsni tiyish, adolat va ma’rifat, tabiat va insonni sevish, ularni e’zozlash, ta’lim-tarbiya to’g’risidagi g’oyalarni o’z sheriylarida ifodalagan. Bu g’oyalar mutafakkirning g’azal va ruboiylari, dostonlari, nasriy asarlariga singib ketgan. I.Haqqul ta’kidlaganidek, “Alisher Navoiyning tasavvuf ta’limotidan ko’zda tutgan maqsadi – shaxs va millat taqdiriga mas’ul, yurt taraqqiyotiga suv va havoday zarur tushunchalarning istiqboli uchun yonib kurashgan, haqiqatni faqat tanish emas, haqiqatni sevish salohiyatini ham ko’zlagan mutafakkir san’atkorning yondashuv va maqsadi edi” [3.27].

O’rta asrlarda G’arbda falsafiy bilimlar Arastu zamonida shakllangan mantiq, etika, ritorika, poetika, siyosat kabi sohalariga ajratib o’rganilgan bo’lsa, islomiyat davrida Sharqda falsafaning barcha sohalarini tasavvuf o’zida jamladi. Tasavvuf pirlari – so’filar yomon nafsini jilovlagan, ruhini turli axloqiy va ijtimoiy illatlardan tozalashga intilgan zohidlar va oriflar bo’lgani

uchun keng xalq ommasi, xususan, bunyodkor mehnat ahli, hunarmandlar ham, aziz-avliyolarning duo, fotihalariga ehtiyoji bo’lgan hokimiyat egalari ham tariqat pirlari – so’fiylarni hurmat-izzatga sazovor deb bilar edilar.

Yana shuni aytish mumkinki, Navoiy ahloqiy qarashlar bilan birga adolat haqida ko’plab ma’lumotlar keltirgan. “Mahbub ul-qulub”da: Yaratganga ham xush kelmaydigan podshoh va vazirlardan xalqning ahvoli og’irlashadi, “obod joylar uning zulmidan vayrona, kabutar uyalari boyqushga oshiyona” xalq qayg’uga tushadi deydi [4]. Shuning uchun o’zining faoliyatidagi ixtiyorsiz bo’lgan nizoli ziddiyatli voqeaga aralashadi. Navoiy adolatlik yo’lini tutib o’tgan noxushliklar aybdorlarini topib, dalil isbotlarini yig’adi. Hirotda Navoiy sulton amrini xalqqa yetkazib kerakli tadbirlarni amalga oshiradi, podshohga bor haqiqatini adolatli ravishda bayon etgach, aybdorlar jazolanadilar. Harbiy yurishdan qaytayotganlarida xalq sultonni va Alisher Navoiyni kutib oladilar. Navoiy o’z davrida davlatni boshqarayotgan hukmdor har bir masalada siyosiy, huquqiy, diniy, ma’naviy, madaniy va ijtimoiy boshqarishning tub mohiyatida, avvalo, adolatga, adolatparvarlikka asoslanishi kerak degan fikrlarini olg’a suradi. Hukmdor Husayn Boyqaro xalqini adolatsizlikdan, zulmdan qutqardi. Noxushlikning oldini Alisher Navoiyning falsafiy-diniy-islomiy dunyoqarashi xalqi, millati, qavmlar orasida tinchlik va o’zaro bahamjihatlik munosabatlari, ma’suliyatlikning mohiyati-yu maqsadi yagona bo’lgan pok niyatlari asrab qolgan Ilmi toliblarini ma’naviy badiiy, madaniy, jismoniy to’g’ri tarbiyada tarbiyalanishlariga, ilm bilan shug’ullanishlariga katta ahamiyat bergan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Axloq – kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o’ziga xos usuli, u yoki bu jamiyatda qabul qilingan va rioya qilinishi lozim bo’lgan tartib, odob, o’zaro munosabat hamda muloqotning qonun-qoidalari, mezonlari yig’indisi; har bir inson tan oladigan etik qadriyat; inson mavjudligini ta’minlash, uni tarbiyalash, tartibga solish va boshqarishning o’ziga xos usuli. Vijdon, iymon, adolat, aql, birlikka intilish, hayo, or, burch, mas’uliyat, yaxshilik, rahm-shafqat, g’amxo’rlik, mehr-oqibat, sadoqat, vafo, muhabbat, qanoat, saxovat, ilm-ma’rifat, himmat, adab, karam, qanoat, ishq, rostgo’ylik kabi ijobiy sifatlar go’zal axloqqa xosdir.

Tahlil va Natijalar (Analysis and results).

Musulmon Sharqi kishilarining axloqiy fazilatlarini, asosan, islom va islomiy tasavvuf asosida shakllangan. Qolaversa, islom dunyosining buyuk siymolari hayot yo'li, qarashlari insonlar uchun asosiy dasturul amal bo'lib kelmoqda. Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Allohning necha ming payg'ambar, avliyo va hikmat egalari yuborishdan maqsadi – insoniyatning axloqini bezash va siyratini yaxshilash, go'zallashtirishdir. Shu ma'noda aytganda, hazrat Alisher Navoiy shaxsiyati bilan ham, ijodi bilan ham ana shu missiyaga xizmat qilgan siymolardan biridir. Bu da'voni u kishining bolalikdan vafotiga qadar bosib o'tgan hayot yo'li hamda ijodi to'raligicha tasdiqlaydi. Navoiyning o'tkir zehni, go'zal xulqi bolalik chog'ida Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiyning duosiga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladi. Navoiyning mana bu fikri uning butun umrlik shiori bo'lgan ko'rinadi: Har nafasing holidin ogoh bo'l, Balki anga hush ila hamroh bo'l [3;262]. Ya'ni, o'tgan har lahzangning holidan ogoh, hushyor bo'l, uni behuda o'tkazma deb aytgandi.

Navoiy qanchalik insonparvar, ma'rifatparvar, adolatparvar bo'lsa, xalqining oldidagi din, imon, e'tiqodi umuminsoniy fazilatlarini yanada yuksala borgan, butun olamga va olamlarning Robbisiga muhabbati ishqiy ortgan. Ta'limotlaridagi dunyoqarashining asosi naqshbandiylik. Shu bilan birga ko'p qirrali o'lmas asarlarini asosida Yaratuvchining ulug'ligi va go'zalligi, buyukligini ta'riflagan ijod etgan. Kishilarning qaysi davr va qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar, Alisher Navoiyning ulug' asarlari jamiyatni adolatli manfaatlariga yo'naltirishga birday xizmat qilaveradi.

Navoiy olam ahlini bir-biriga yor, hamdam bo'lishga chaqirgan. Navoiyning aytishicha, dushmanlik emas, yorlig' – ish. Ya'ni insoniyat bir-biriga yovlik qilish bilan hech qachon muddaoga yeta olmaydi. Aksincha, o'zaro hamjihatlik, do'stona munosabatlar orqaligina taraqqiy etishi mumkin. Baytning tahliliga etibor qaratgan taniqli adabiyotshunos olim, akademik Aziz Qayumov shunday yozadilar: "Navoiy uchun eng muhim narsa inson, uning foydasi uchun qilinadigan ish, insonlarning bir-biriga mehr-oqibati, ular o'rtasidagi barqarorlik va qardoshlik deydi. Insoniy fazilatlarini tahlil etar ekan, Navoiy hech qachon

odamlarning irqi, dini, bir xalqqa mansubligi qarab ajratmagan. Navoiy hamisha hamma odamni barobar qo'yadi. Ular o'rtasida sof, pokiza, halol insoniy sifatlarni yoymoqqa bor kuchi bilan harakat qiladi. Eng muhimi odamlarning bir-biriga muhabbati va g'amxo'rligidir" deydi [5]. Ulug' mutafakkir Navoiy asarlarida odob-axloq masalasi diqqatga sazovorlisi shundaki, ularda yoritilgan muammolar jamiyatda tutgan mavqeyidan, millatidan, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, barchaga tegishli ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, "Xamsa"ning ilk dostoni "Hayrat ul-abror"da shunday satrlarni o'qiymiz:

Odami ersang demagil odami,

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami. [6]

Hazrat Navoiy bilim o'rgatuvchi ilmi tolibga yoshlikdagi egallangan bilim toshga yo'nilgan naqsh kabi mustahkam bo'lishini ta'kidlagan, bugungi kun uchun ham mujassalashgan bilim va ilm masalalari ekanligini aytib o'tgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Alisher Navoiyning axloqiy qarashlari nafaqat XV asr Movarounnahr madaniyatining cho'qqisi, balki butun insoniyat ma'naviy merosining qimmatli tarkibiy qismidir. Bugungi kun kishilari uchun ham insonni insonga bo'lgan adolatli munosabati ko'p jihatlaridan ularni ilmi, imonli, vijdonli, yuksak ma'naviy qadriyatlariga bog'liq. Nihoyatda chuqur bilimlilik, keng diniy va falsafiy dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, o'tkir zehn va fahm-farosatga egalik, ta'riflash va tavsiflash, asarlarni tahlil va sharhlash hozirgi yoshlarimiz uchun katta ahamiyatga egadir. Uning merosi turkiy-islom falsafasining o'ziga xos namunasi sifatida nafaqat o'tmishni o'rganish, balki kelajakni qurish uchun ham qimmatli manba hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Navoiy A. "Nasoyim ul-Muhabbat". Toshkent: Fan, 2001.
2. Hayitmetov, A. "Navoiy falsafasi". Toshkent: O'zbekiston, 1996.
3. Navoiy A. "Xamsa" (Besh doston). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
4. Navoiy A. "Mahbub ul-Qulub". Toshkent: Akademnashr, 2017.
5. Qayumov Aziz. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. – Toshkent, Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014. -B.272.
6. Navoiy. MA– T.: 20 tomlik. T.7. Xamsa: Hayrat ul-abror. – T.: Fan, 1991.

**YOSHLAR MA'NAVY-AXLOQIY
BEGONALASHUVIGA QARSHI BARQAROR
QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH
MUAMMOLARI**

Xakimov Dilmurod, v.b. dotsent, TMC Institute Tashkent
**PROBLEMS OF FORMING STABLE VALUES TO
COUNTERACT THE SPIRITUAL AND MORAL
ALIENATION OF YOUTH**

a.khakimov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-1666-7401>

Khakimov Dilmurod, acting associate professor, TMC Institute Tashkent
**ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВЫХ
ЦЕННОСТЕЙ В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ ДУХОВНО-
ПРАВСТВЕННОЙ ОТЧУЖДЁННОСТИ МОЛОДЁЖИ**
Хакимов Дилмурод, и.о. доцент TMC Institute Tashkent

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar orasida kuzatilayotgan ma'naviy-axloqiy begonalashuv muammolari tahlil qilinadi. Globallashuv, axborot oqimlarining kuchayishi va madaniy transformatsiyalar yoshlar ongida qadriyatlarga nisbatan befarqlikning kuchayishiga olib kelayotgani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviy-axloqiy begonalashuv, barqaror qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, ijtimoiylashuv, ma'naviy immunitet.

Abstract: This article examines the problems of spiritual and moral alienation among youth in the context of contemporary society. The impact of globalization, intensified information flows, and cultural transformations on the formation of young people's value orientations is scientifically analyzed. The study identifies social, psychological, and pedagogical factors contributing to spiritual and moral alienation. Particular attention is paid to the theoretical foundations of forming stable values and to effective ways of integrating them into educational and upbringing processes. The findings aim to strengthen the spiritual resilience of youth and enhance their social engagement and moral responsibility.

Key words: youth, spiritual and moral alienation, stable values, moral education, socialization, spiritual resilience.

Аннотация: В статье анализируются проблемы духовно-нравственной отчуждённости среди молодёжи в условиях современного общества. Обосновывается влияние глобализации, усиления информационных потоков и культурных трансформаций на формирование ценностных ориентиров молодого поколения.

Ключевые слова: молодёжь, духовно-нравственная отчуждённость, устойчивые ценности, духовное воспитание, социализация, духовный иммунитет.

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining murakkab va ziddiyatli jarayonlari yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyosiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivoji, madaniyatlararo integratsiya hamda ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi sharoitida yoshlar ongida qadriyatlarga nisbatan munosabatlar o'zgarib

bormoqda. Bu jarayon bir tomondan yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ma'naviy-axloqiy begonalashuv, ijtimoiy befarqlik va qadriyatlar inqirozi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur muammo ta'lim-tarbiya tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy

begonalashuvga qarshi barqaror qadriyatlarni shakllantirish, ularda ma'naviy immunitetni kuchaytirish va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish dolzarb pedagogik va ijtimoiy ehtiyojga aylandi. Barqaror qadriyatlar nafaqat shaxsiy axloqiy mezonlar majmui, balki yoshlarning hayotiy pozitsiyasi, dunyoqarashi va jamiyatdagi faol ishtirokini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yoshlar ma'naviy-axloqiy begonalashuvi global miqyosda muhokama qilinayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu hodisa shaxsning jamiyatdan, an'anaviy qadriyatlar tizimidan va axloqiy me'yorlardan uzoqlashuvi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy fanlar vakillari bu jarayonni turli nazariy yondashuvlar orqali izohlaydilar.

Ijtimoiy begonalashuv nazariyasining dastlabki ilmiy talqinlari klassik sotsiologiya doirasida shakllangan. Jumladan, Émile Durkheim jamiyatdagi qadriyatlar va me'yorlar yemirilishini *anomiya* tushunchasi orqali izohlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy me'yorlar zaiflashgan sharoitda yoshlar axloqiy yo'nalishdan mahrum bo'lib, befarqlik va begonalashuv holatiga tushib qoladi. Bu qarashlar bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongida yuz berayotgan qadriy inqirozni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy-axloqiy begonalashuvning psixologik jihatlarini Erich Fromm asarlarida chuqur tahlil qilingan. U zamonaviy jamiyatda insonning "egallik qilish"ga yo'naltirilgan tafakkuri "bo'lish" qadriyatlarini siqib chiqarayotganini ta'kidlaydi. Frommga ko'ra, yoshlar iste'molchilik madaniyati ta'sirida ichki ma'naviy ehtiyojlardan uzoqlashib, hayot mazmunini moddiy manfaatlar bilan o'ldiray boshlaydi. Bu holat optimistik dunyoqarash emas, balki ma'naviy bo'shliqni yuzaga keltiradi.

Globalashuv va postmodern jamiyat sharoitida qadriyatlar beqarorligi masalasiga alohida e'tibor qaratgan olimlardan biri Zygmunt Bauman. U o'zining konsepsiyasida zamonaviy inson, xususan yoshlarning qat'iy axloqiy mezonlardan mahrum bo'layotganini ta'kidlaydi. Bauman fikricha, barqaror qadriyatlarning yo'qligi yoshlarni ijtimoiy ildizsiz, tez o'zgaruvchan va mas'uliyatsiz qarorlar qabul qilishga moyil qiladi. Shu sababli, yoshlar begonalashuviga qarshi

kurashda barqaror axloqiy qadriyatlarni shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik va psixologik yondashuvda esa yoshlar ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, shaxs qadriyatlari bevosita ijtimoiy muloqot va madaniy muhit orqali shakllanadi. Agar ushbu muhitda ma'naviy ideal va axloqiy namuna yetarli bo'lmasa, yoshlar begonalashuvga moyil bo'lib qoladi. Demak, ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlar barqaror qadriyatlarni uzluksiz singdirib borishi zarur.

Olimlar fikrlariga tayangan holda aytish mumkinki, yoshlar ma'naviy-axloqiy begonalashuviga qarshi samarali kurashning asosiy yo'li — bu ularning ongida barqaror, hayotiy va mazmunli qadriyatlar tizimini shakllantirishdir. Ushbu qadriyatlar yoshlarning shaxsiy kamoloti, jamiyatga daxldorlik hissi va ma'naviy mas'uliyatini mustahkamlab, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda ham yoshlar ma'naviy-axloqiy begonalashuvi milliy o'zlikni anglash muammosi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Olimlar yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash, tarixiy xotira va ma'naviy merosga tayangan tarbiya tizimini kuchaytirish begonalashuvning oldini olishda muhim omil ekanini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv yoshlarni global madaniy bosimlar sharoitida ma'naviy jihatdan barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Tahlil va Natijalar (Analysis and results). Yoshlar ma'naviy-axloqiy begonalashuvi ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli, fuqarolik mas'uliyati va shaxsiy kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu holat yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlardan uzoqlashishi, an'anaviy axloqiy me'yorlarga befarqligi, shuningdek, individualizm va iste'molchilik kayfiyatining kuchayishi bilan izohlanadi. Natijada jamiyatning barqaror rivoji uchun muhim bo'lgan ma'naviy birlik va ijtimoiy uyg'unlik zaiflashadi.

Shu nuqtayi nazardan, yoshlar ma'naviy-axloqiy begonalashuvining sabablarini chuqur tahlil qilish, uning ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillarini aniqlash hamda barqaror qadriyatlarni shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab

chiqish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot yoshlar bilan ishlashda ta'lim, tarbiya va ijtimoiy muhitning uzviyligini ta'minlashga, shuningdek, zamonaviy tahdidlar sharoitida yosh avlodning ma'naviy barkamolligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy yechimlarni asoslashga xizmat qiladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar yoshlar begonalashuviga qarshi kurashda ma'naviy immunitet tushunchasini ilgari suradi. Ushbu tushuncha shaxsning axborot bosimi, destruktiv g'oyalar va yot qadriyatlarga nisbatan tanqidiy refleksiya, aksial barqarorlik va axloqiy rezistentlik ko'rsatish qobiliyatini anglatadi. Barqaror qadriyatlar esa mazkur immunitetning asosiy strukturaviy komponenti hisoblanadi.

